



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> October 2025

---

## **O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**

Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi

Qarshi davlat texnika universiteti Biznes va boshqaruv

kafedراسi stajyor-o‘qituvchisi

madinabonuizzatullayeva29@gmail.com

(99) -091-00-25

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyoti barqarorligini ta‘minlashda ekonometrik modellashtirishning ilmiy-nazariy asoslari, uning amaliy qo‘llanish imkoniyatlari hamda iqtisodiy siyosatni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashda regressiya tahlili, panel ma‘lumotlar modeli va vaqt qatori tahlilidan foydalanishning afzalliklari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ekonometrika, barqarorlik, iqtisodiy model, iqtisodiy o‘shish, regressiya, bashorat, makroiqtisodiy tahlil.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni O‘zbekiston uchun murakkab, lekin zarur yo‘l bo‘ldi. Ushbu o‘zgarishlar nafaqat institutsional islohotlarni, balki iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ularni ilmiy asosda boshqarishni ham talab qildi. Shunday sharoitda, iqtisodiy hodisalarni miqdoriy ifodalash va prognozlash imkonini beruvchi ekonometrik modellarning ahamiyati ortib bormoqda. Ekonometrika — iqtisodiy nazariyalar, statistik ma‘lumotlar va matematik usullarni uyg‘unlashtirgan holda iqtisodiy qonuniyatlarni aniqlash va tekshirishga xizmat qiluvchi fan sohasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan qabul qilingan Harakatlar strategiyasi va keyingi yillarda bosqichmabosqich amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar bozor iqtisodiyotining chuqurlashuviga xizmat qildi. Shu bilan birga, iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini baholash va prognoz qilishda an‘anaviy statistik tahlil usullari yetarli bo‘lmay qolmoqda. Bu esa zamonaviy, chuqur, matematik



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> October 2025

asoslangan yondashuv — ekonometrik modellardan foydalanishni dolzarb qiladi. So‘nggi yillarda mamlakatda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari, narxlar darajasi, investitsiya oqimlari, valyuta kursi, aholi bandligi kabi ko‘rsatkichlarga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilishga bo‘lgan ehtiyoj ortdi. Ushbu ehtiyojni qondirishda regressiya tahlili, vaqt qatorlari modeli (time series analysis), VAR-modellar va boshqa ekonometrik vositalar keng qo‘llanila boshladi [1].

Bugungi kunda iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, ularning rivojlanish dinamikasini baholash va kelgusidagi holatini bashoratlashda ekonometrik modellashtirish eng samarali ilmiy usullardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda tarkibiy islohotlar, raqamli transformatsiya va investitsion faollikning ortishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun qarorlar aniq statistik ma‘lumotlar va matematik tahlillarga tayanishi zarur.

Ekonometrik modellashtirishning nazariy asoslari. Ekonometrika — bu iqtisodiy nazariya, matematika va statistika fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, iqtisodiy hodisalar o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlikni modellashtirishga qaratilgan.

Ekonometrik modellashtirishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- ✓ Tadqiqot ob‘yektini aniqlash va nazariy gipoteza shakllantirish;
- ✓ Ma‘lumotlarni yig‘ish va ularni tozalash;
- ✓ Model turini tanlash (chiziqli, panel, vaqt qatori va boshqalar);
- ✓ Model parametrlarini baholash;
- ✓ Natijalarni tahlil qilish va iqtisodiy talqin berish.

O‘zbekiston iqtisodiyoti barqarorligini ta‘minlashda ekonometrik modellashtirishning o‘rni, O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasini barqarorlashtirish, bandlikni oshirish, investitsiyalarni ko‘paytirish va tashqi savdo balansini yaxshilash kabi omillar iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, ko‘p omilli regressiya modeli asosida O‘zbekiston iqtisodiy o‘shishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \varepsilon$$



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> October 2025

bu yerda:  $Y$  – iqtisodiy o‘sish sur‘ati (YAIM),  $X_1$  – investitsiyalar hajmi,  $X_2$  – eksport hajmi,  $X_3$  – inflyatsiya darajasi,  $\varepsilon$  – tasodifiy xatolik.

Ekonometrik tahlilning amaliy ahamiyati

Ekonometrik modellar amaliy jihatdan quyidagi sohalarda keng qo‘llaniladi:

- ✓ iqtisodiy siyosatning samaradorligini baholash;
- ✓ soliq va byudjet siyosati natijalarini prognozlash;
- ✓ investitsion loyihalarning iqtisodiy ta‘sirini aniqlash;
- ✓ mehnat bozori, inflyatsiya, iste‘mol narxlari indeksini bashoratlash.

O‘zbekiston iqtisodiyoti barqarorligini ta‘minlashda ekonometrik modellashtirishning ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Bu uslub yordamida iqtisodiy jarayonlarning chuqur tahlili, qarorlar samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlash mumkin. Kelajakda ekonometrik modellarni sun‘iy intellekt va “Big Data” texnologiyalari bilan integratsiyalash, raqamli iqtisodiyot uchun mos tahliliy platformalarni yaratish O‘zbekistonning iqtisodiy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov Abbos Nuriddin o‘g‘li BuxDU Iqtisodiyot va turizm fakulteti “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasida o‘qituvchisi
2. Statistical analysis of production activity development of industrial enterprises, Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi
3. Systematic approach in econometric modeling of the development of industrial networks, Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi
4. Организация стратегического планирования в процесс управления предприятием, Иззатуллаева Мадинабону Ёлқин қизи
5. The Role of strategy in the organization of management in enterprises, Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi